

bilish, aybini bilish, erta uyg‘onish, shoshmaslik, ehtiyotkorlik, mardlik kabilar kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Арутюнова Н.Д. Типы языковых значений. Оценка. Событие. Факт. – Москва, 1988.
2. Aminova A.O‘. O‘zbek xalq maqollarida “Baho” konsepti / Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. – Namangan, 2021. – № 2 – B. 203-207
3. Жўраева Б.М. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари: Филол. фан. док. дис. автореф. — Самарқанд, 2019.
4. Bibish Muhsinovna Jo‘rayeva, Amira O‘lmas qizi Aminova. O‘zbek xalq paremalarida shaxs xarakterini tavsiflovchi salbiy baho O‘zbek halk paremasında kişi karakterinin olumsuz değ erlendirilmesi Uluslararası Türk dünyası Yunus Emre sempozyumu 24-27-mayis.2021 – b. 497-501
5. Пардаев З. Нутқ инновацияси ва уларда баҳо муносабатининг ифодаланиши (сифат лексемалар асосида)// Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2009. – № 1.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.
7. Шомақсудов Ш., Шорахмедов Ш. Ҳикматнома. – Тошкент, 1990.

“SHIMORA”MI YOKI “SHUMORA”

Astanova Gulnora Aminovna,

BuxDU dotsenti

Mirzoyeva Yulduz Yusup qizi,

BuxDU magistranti

Annotatsiya. Jahon adabiyotshunosligida “Ming bir kecha” asarini o‘rganish bir necha yuz yildan ortiq tarixga ega bo‘lib, bu davr mobaynida Sharq va G‘arb mamlakatlarida mazkur asarga oid yuzlab asarlar yaratildi. Natijada jahon adabiyoti durdonasi bo‘lmish mazkur asarning dunyo madaniyati tarixidagi o‘rni yuqori baholandi. Shu bilan birga mazkur asar o‘zbek adabiyotiga ham samarali ta’sir ko‘rsatgan. “Ming bir kecha” asari zero o‘zbek adabiyoti uchun tarjima asar bo‘lsa ham, asrlar davomida turonzamin xalqlari mazkur

asarni yo asl nusxada , yo tarjima holatida mutolaa qilib kelishgan. Bu esa asarni allaqachon o‘zbek adbiyotiga chuqur singib ketishiga asos bo‘ldi.

Kalit so‘zlar: *shimora, shumora, semantika, adabiy-uslubiy jihat*

Adabiyotshunos olim N. Komilov: “O‘zbek adabiyoti - Sharq adabiyotining bir qismi”^{*}, – deganida to‘la haqli edi. Zero, “Ming bir kecha” tipidagi asarlar, qissaxonlik bizda uzoq tarixga ega. Adabiy-uslubiy jihat, aruz she‘riyati, badiiy san’atlar, tasviriy vositalar nuqtai nazaridan o‘zbek mumtoz adabiyoti arab va fors adabiyotiga yaqin.

Ma’lumki, “Ming bir kecha” asari hikoyatlari ma’no - mazmuni rang-barang. Unda ko‘pincha sevgi-muhabbat haqidagi hikoyatlar, sehrli-fantastik hikoyatlar, hayotiy novellalar, makr-hiylaga oid hikoyatlar, sayohatlar haqidagi, shuningdek o‘rta asr arablarining eng sevimli janri bo‘lgan pand-nasihatga oid hikoyat va rivoyatlari o‘rin olgan. Latifalar qahramoni odatda hayotiy shaxslardan olingan, masalan, xalifalar, qozilar, mashhur shoir va olimlar ishtirok etishadi. Xususan, unda kanizaklar bilan aloqador lavhalar bisyor. E’tiborimizni “Kanizak Tavaddud qissasi” hikoyatiga qaratmoqchimiz.

1994-yil “Yozuvchi” nashriyotida “Qaqnus” korxonasi tashabbusi bilan mazkur hikoyaning XX asr boshlarida Sidqiy Xondayliqiy tomonidan qilingan tarjimasini “Kanizak qissasi” nomi bilan yaxlit kitobcha shaklida qayta nashr etilgan.

Bu hikoyada Bag‘dodda yashagan bir mulkdorning Tavaddud ismli kanizagi aql-zakovatda yaktoligi bayon etilib, shu orqali kitobxonga Qur’on, tafsir, fiqh, nahv va handasa, munajjimlik va tabiblik ilmlaridan saboq berilganini ko‘ramiz.

Ammo shuni aytish kerakki, “Yozuvchi” nashriyoti chiqargan “Kanizak qissasi”da matniy xatolar ko‘p. “Halqai zulfung erur chun halqai angishtariy” deb xato yozilgan. Birinchidan, Sidqiy Xondayliqiyda o‘zbek mumtoz adabiyoti tiliga xos singarmonizm saqlangan: zulfung, bo‘lub, kuyungda kabi. Ikkinchidan, forsha angish-toshko‘mirni anglatadi, angushtariy esa uzuk demakdir. Ya’ni noshir uzukni ko‘mirga almashtirgan. “Ey, farzandim, manga ajal yovubdur va liqayya ilohidin o‘zga orzuim yo‘qdur”. “Liqayya” degan

^{*} Комилов Н. Хорезмская школа перевода. Автореф.дисс... докт.фил.наук. – Т.: Фан, 1987. – 47с.

so‘z lug‘atlarda yo‘q. Bu erda liqoyi ilohiy nazarda tutilmoqda. Ma’nosi Alloh bilan yuzma-yuz demak. Imom Shofe’iyni-imom SHafe’iy, Nazzomni-nizom, savmni (ro‘za)-sum, adabi zakotni-odoyi zakot, himmatni-hidmat, shumora so‘zini-shimora, ro‘zgorni-ro‘zkor, qilgilni-qilgi deb xato keltirilgan. Forsiy izofalar qo‘shimchasi tashlab ketilgan yoki “i” tovushi o‘rniga “u” qo‘llab ko‘plab xatolikka yo‘l qo‘yilgan. “Adab va saromad ahli” emas, balki “Adab va saromadi ahli ruzgor”, “Orazi la’lidek” emas, “Orazi la’ldek”, “ilmu sitora” emas, “ilmi sitora” va hokazo. Bularning hammasi asl nusxa va tarjima matniga nihoyatda ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish, tarjimalarni nashr ettirganda esa tarjima yaratilgan davr tili va uslubini hisobga olib, savodxonlik bilan ko‘chirish va izohlar berish lozimligini ko‘rsatadi. Adabiyotshunos olim Q.Musayev yozadi: “Tarjima tilining sofliigi, uning yuqori madaniyati uchun kurash adekvat tarjimalar yaratish bobidagi jonbozlik bilan mantiqiy bog‘liq bo‘lib, barcha leksik va frazeologik birliklar hamda stilistik vositalarning originaldagi darajada tabiiy jaranglashi, birinchi navbatda, ularning o‘z ma’no va funksiyalari hamda o‘zlariga xos shakllarida ishlatishni taqozo etadi”.

Biroq, tarjimada va yoki nashrda qo‘yilgan jiddiy xatolik olim aytgan normalarni buzilishiga sabab bo‘ladi. Yuqorida ko‘rganimiz bunday tarjima usuli original asardagi mazmundorlikni kitobxonga aniq tarzda etkaza olmaydi va o‘z salmog‘ini butkul yo‘qotadi.

Shunisi aniqki, “Ming bir kecha” tarjimalari, shu kabi boshqa o‘lmas badiiy obidalar tarjimasi o‘zbek xalqi ma’naviy-madaniy tarixining ajralmas qismi hisoblanadi. Ularda badiiy did, til rivojini ham kuzatish mumkin. SHarq durдона asarlari tarjimasi orqali xalqimiz o‘z o‘tmishi, madaniy merosi bilan kengroq tanishish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Demak, har bir badiiy tarjima asar u yoki bu jihati bilan ma’naviyatimiz, milliy adabiyotimiz rivojiga hissa qo‘shar ekan, u o‘zbek kitobxoni qo‘liga nuqsonsiz etib borishiga erishishimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Комилов Н. Хорезмская школа перевода: Автореф.дисс... докт.фил.наук. – Т.: Фан, 1987. – 47с.
2. Musaev Q. Badiiy tarjima va nutq madaniyati. – Т.: O‘qituvchi, 1976. – B.13.